

O‘ZBEKISTON TARIXSHUNOSLIGIDA TURKIYADAGI O‘ZBEK TAKYALARI (TEKKELARI) YORITILISHI

Sevara Akmalovna Po‘latova,
tarix fanlari nomzodi,
Alfraganus universiteti,
ORCID: 0009-0000-4816-1696,
E-mail: sevaraakmalovna@mail.ru;

Jaloliddin Muhammad,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD),
E-mail: mirzokozimxon@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada O‘zbekistonda Turkiyadagi O‘zbeklar takyalari – tekkelari asosan haj yo‘lidagi vaqtincha yashash joyi sifatida qaralgani, uning sotsiomadaniy institut sifatidagi faoliyati ko‘pincha chetda qolgani qayd etiladi. Bu O‘zbek tilida to‘laqonli tadqiqotlar hali mavjud emasligi bilan ham izohlanadi. Hatto mavzu yangiligidan maqolalarda “takya” atamasi turlicha qo‘llanilayotganligi ta’kidlanib, bu haqda alohida fikr bildirilgan.

Umuman, Turkiyadagi O‘zbeklar takyalariga oid ma’lumotlar haj ziyorati, tasavvuf, sharq me’morligi, taniqli shaxsiyatlar faoliyatiga oid tadqiqotlar va maqolalarda o‘rin olganligi, shuningdek, aynan bu mavzudagi ilmiy ishlar asosan turk va g‘arb olimlarining tadqiqotlariga tayanib qolayotgani kuzatildi. Ko‘p hollarda mavzu ma’lumot va mualliflarning bevosita safar taassuroti tarzida yoritilayotganligi ham namoyon bo‘ldi. Albatta, ba’zi tadqiqotlarda birlamchi manbalar – arxiv hujjatlari e’lon qilingan to‘plamlardagi ma’lumotlardan birmuncha foydalanish borligini ham qayd etish kerak. Bu borada 2022 yili “Turkiya – O‘zbekiston aloqalari hujjatlarda” kitobi chop etilishi belgisi voqea bo‘ldi.

Turkiy tilli mamlakatlarning munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda Turkiyadagi O‘zbeklar takyalari bo‘yicha chiqishlar birmuncha jonlanganligi olimlarning O‘zida ham bu mavzuga qiziqish ortib borayotganligini namoyon etadi. Bu borada O‘zbekistonlik olimlar tomonidan Turkiyadagi arxivlar hamda O‘zbeklar takyalari shayxlarini va ular bilan bog‘liq shaxslar avlodlarida saqlanayotgan hujjatlarni, takyalar bilan hayoti to‘liq yoki qisman bog‘liq bo‘lgan insonlarning xotiralarini o‘rganish zarur. Qolaversa, boshqa o‘lkalardagi O‘zbeklar takyalari Usmonli turk davlati orqali boshqarilganligini ham nazarda tutmoq o‘rinli. Bu jihatdan o‘rta asrlarda O‘zbeklar takyalari tarmog‘i yuzaga kelgani hamda ular musulmon o‘lkalarida O‘zbek jamoatlari qaror topishida muhim o‘rin egallaganligini ta’kidlash zarur.

KALIT SO‘ZLAR: O‘zbeklar takyasi, Naqshbandiya tariqati, Turkiya, haj, tarixshunoslik.

ÖZBEKİSTAN TARİHYAZIMINDA TÜRKİYE’DEKİ ÖZBEK TEKKELERİ

Prof. Dr. Sevara Akmalovna Pölatova

Alfraganus Üniversitesi;

Dr. Jaloliddin Muhammad.

ÖZET: Makalede Özbekistan’da yapılan araştırmalarda Türkiye’deki Özbek tekkelerinin çoğunlukla hac güzergahı üzerinde geçici konaklama yerleri olarak değerlendirilmesinin ve sosyo-kültürel bir kurum olarak işlevlerinin çoğu zaman göz ardı edilmesinin nedenleri araştırılacaktır. Bu durum, Özbekçede henüz tam teşekküllü bir çalışmanın olmamasıyla da açıklanabilir. Konu yeni olması sebebiyle makalelerde “tekke” kelimesinin farklı kullanıldığına dikkat çekilmiş ve bu konuda ayrı bir görüş ortaya atılmıştır.

Türkiye’deki Özbek tekkelerine ilişkin bilgilerin ağırlıklı olarak hac, tasavvuf, İslam mimarisi ve ünlü şahsiyetlerin faaliyetleri üzerine yapılan çalışmalarda yer aldığı, bu konudaki bilimsel araştırmaların ise ağırlıklı olarak Türk ve Batılı bilim insanlarının araştırmalarına dayandığı kaydedilmiştir. Ayrıca konunun çoğunlukla bilgi ve yazarların doğrudan seyahat izlenimleri şeklinde ele alındığı da görülmektedir. Elbette bazı çalışmalarda birincil kaynaklardan, yani yayınlanmış arşiv belgelerinden alınan verilerden yararlanıldığı da belirtilmelidir. Bu bağlamda 2022 yılında *Belgelerle Türkiye-Özbekistan İlişkileri* kitabının yayınlanması önemli bir gelişme olmuştur.

Türkçe konuşan ülkeler arasındaki ilişkilerin geliştiği günümüzde, Türkiye’deki Özbek tekkeleri üzerine araştırmaların yeniden canlanması, bilim insanlarının da bu konuya ilgi duyduğunu göstermektedir. Bu bağlamda Özbek bilim adamlarının Türkiye arşivlerini, ayrıca Özbek tekkelerinin şeyhlerinin torunlarının ve yakınlarının belgelerini, hayatları kısmen veya tamamen tekkeyle bağlantılı olan kişilerin anılarını incelemeleri gerekmektedir. Ayrıca diğer ülkelerdeki Özbek tekkelerinin Osmanlı Devleti’nin denetimi altında olduğu da belirtilmelidir. Böylelikle Ortaçağ’da ortaya çıkan Özbek tekkeleri ağı, Özbek topluluklarının Müslüman ülkelere yerleştirilmesinde önemli rol oynamıştır.

ANAHTAR KELİMELE: Özbekler Tekkesi, Nakşibendîye tarikati, Türkiye, Hac, Tarihyazımı.

IN THE HISTORIOGRAPHY OF UZBEKISTAN, THE COVERAGE OF UZBEK TEKKES (LODGES) IN TURKEY

Sevara Akmalovna Pulatova

Doctor of Philosophy (PhD) in
Historical Sciences, Professor,
The Alfraganus University;

Jaloliddin Muhammad,

Doctor of Philosophy (PhD)
in Art Sciences.

ABSTRACT: The article notes that in Uzbekistan, Uzbek takyas - tekkes in Turkey are mainly considered as temporary residences on the pilgrimage route, and their function as a socio-cultural institution is often overlooked. This is also explained by the fact that there are still no full-fledged studies in the Uzbek language. Despite the novelty of the topic, it was noted that the term "takyas" is used differently in the articles, and a separate opinion was expressed on this matter.

In general, it was noted that information about Uzbek takyas in Turkey is included in studies and articles devoted to pilgrimage, Sufism, oriental architecture, the activities of famous personalities, and that scientific works on this topic are mainly based on the research of Turkish and Western scholars. In many cases, it was also obvious that the topic was revealed in the form of information and direct impressions of the authors from travels. Of course, it should also be noted that some studies use primary sources – data from published collections of archival documents. In this regard, the publication of the book "Turkish-Uzbek Relations in Documents" in 2022 was a significant event.

The fact that in the current conditions of development of relations between Turkic-speaking countries, discussions about Uzbek takyas in Turkey have somewhat revived, testifies to the growing interest in this topic among the scholars themselves. In this regard, Uzbek scholars need to study the archives of Turkey, documents preserved in the generations of Uzbek takya sheikhs and persons associated with them, as well as the memoirs of people whose lives are fully or partially connected with takya. In addition, it is reasonable to assume that Uzbek takyas in other countries were managed through the Ottoman Turkish state. In this regard, it is important to note that the network of Uzbek takyas arose in the Middle Ages and played an important role in the settlement of Uzbek communities in Muslim countries.

KEY WORDS: Uzbeks Takya (The Uzbeks Lodge), Naqshbandi order, Turkey, Hajj, Historiography.

Kirish

O'zbekistonda Turkiyadagi O'zbek takyalari – tekkelarini o'rganish bo'yicha hali to'laqonli tadqiqot amalga oshirilmagan. Albatta, o'rta Osiyo tarixidagi hajnomalar, safarnomalarda takyalar haqida ma'lumotlar bor. Ammo, ularda asosan takyalar haj safari davomidagi vaqtincha yashash joylaridan biri sifatida qayd etiladi.

Aynan takyalar joylashgan shahar yoki mamlakatning sotsiomadaniy hayotiga ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, uning aynan institut sifatida ko'p qirrali faoliyatini ko'rib chiqish ahamiyatlidir. Shu ma'noda O'zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlarda Turkiyadagi O'zbek takyalari qay darajada yoritilishini o'rganish dolzarblik kasb etadi. Albatta, bu turkiy tilli mamlakatlarning munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitida tadqiqotning istiqboldagi yo'nalishlarini belgilab olishga ham imkon beradi.

Tadqiqotlar va maqolalar

O'zbekistonda takyalar, xonaqohlar bo'yicha tadqiqotlar tarix bilan birga adabiyot, falsafa, san'atshunoslik fanlarida ham olib boriladi. Qolaversa, XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida O'zbekiston hayotida sodir bo'lgan O'zgarishlar e'tiqod masalalarini ham qamrab olib, islom dini qadriyatlari tiklanishiga ta'sir o'tkazdi. Jumladan, O'zbekiston hududida yashagan muhaddislar, allomalar, shayxlarning merosiga bo'lgan qiziqish ortib bordi. Tasavvufga oid tadqiqotlar e'lon qililib, ko'plab adabiyotlar nashr qilindi.

Tarixchi olim Elyor Karimovning "XII–XV asrlarda Markaziy Osiyoda so'fiylik tariqatlari" mavzusidagi, faylasuf olim Rustam Shodievning "o'rta Osiyo xalqi hayotida so'fiylik" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini alohida qayd etish kerak¹. Xususan, R.Shodiev dissertatsiyasida o'rta Osiyodan Kichik Osiyoga, jumladan, turk zaminiga so'fiy jamoatlarining ko'chishiga mo'g'ullar istilosi sabab bo'lgani ko'rsatib o'tilgan². Garchi, asli Urganchdan bo'lgan va keyinroq Balxda yashagan shayx Bahouddin Valad mo'g'ullar bosqinidan bir muddat oldin oilasi hamda muridlari bilan Haj ziyoratiga yo'l olgan bo'lsa-da, uning bunday qaror qabul qilishida Muhammad Xorazmshoh tazyiqlaridan bezor bo'lish qatorida muqarrar urushning ham ta'siri borligini anglash qiyin emas³. Shayx Najmiddin Kubro muridlaridan Bahouddin Valad Jaloliddin Rumiyning otasi bo'lib, "Sulton ul-ulamo" unvoniga musharraf edi. Bahouddin Valad Qo'niyoda vafot etganidan keyin termizlik muridlaridan biri Sayyid Husayn Burhoniddin Muhaqqiq ham Qo'niyoga keladi va Jaloliddin Rumiya ustozlik qiladi⁴.

¹ Каримов Э.Э. Суфийские тарикаты в Центральной Азии XII – XV вв. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1998. – 288 с.; Шадиёв Р. Т. Суфизм в народной жизни Средней Азии (IX – XIII вв.). Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. – Самарканд, 1993. – 259 с.

² Шадиёв Р. Т. Суфизм в народной жизни Средней Азии (IX – XIII вв.). Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. – Самарканд, 1993. – С. 213–214.

³ Чўлиева В. Э. Баҳоуддин Валаднинг ҳаёти, фалсафий таълимоти ва илмий мероси // Имом Бухорий сабоклари. – Самарканд, 2021. – 3-сон. – Б. 16–17.

⁴ Турсунов Ш. Бурхониддин Муҳаққик Термизий ҳаёти ва фалсафий мероси (тарихий ва адабий манбалар асосида) // Academic Research in Educational Sciences. – 2024. – Volume 5. Issue 1. – Б. 81–89.

Jaloliddin Rumi va mavlaviylikka oid bu dalillar misolida XIII asrda oʻrta Osiyodan borgan shayxlar zamonaviy Turkiya hududida Oʻz jamoatlari bilan mamlakatning sotsiomadaniy hayotiga taʼsir oʻtkazganidan darak beradi.

Zumrad Rahmonqulovning tadqiqoti XVI–XX asr boshlarida oʻrta Osiyo va Usmonli davlatlari oʻrtasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy munosabatlariga bagʻishlangan boʻlib, unda Usmonlilarning oʻrta Osiyo xonliklari bilan aloqalarida chor Rossiyasining taʼsiri masalalari ham qamrab olingan. Ushbu nomzodlik dissertatsiyasida madaniy-maʼrifiy aloqalar yoritilgan, haj safarlariga oid maʼlumotlar keltirilgan. Shu bilan birga tadqiqotda takyalar alohida koʻrib chiqilmaganligini qayd etish kerak¹.

Shuningdek, Oʻzbekistonda turkiyalik ulamolarni, tasavvufshunoslarni ham asarlari tarjima qilindi. Ular orasida keyinchalik filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan Nodirxon Hasan tarjimasida 1999 yili chop etilgan Turar Usmonning “Tasavvuf tarixi”, Sayfuddin Sayfulloh tarjimasida 2000 yili nashr qilingan ajdodlari asli Buxoro sayyidlaridan boʻlgan shayx Mahmud Asʼad Joʻshonning “Islom, Tasavvuf va Axloq” asarlari bor².

N.Hasan turk yassaviyshunoslari bilan oʻtkazgan suhbatlarini ham jamlab, 1999 yili “Turkiyada yassaviyshunoslik” nomi bilan chop etgan³. Kitobda taqdim etilgan savollarga oʻsha vaqtda Marmara universitetida professor boʻlgan Hasan Komil Yilmaz javob berar ekan, *“tariqatlarda maqsad: bir model, oʻrnak shaxsning atrofida insonlarning toʻplanib, uning maʼnaviy shaxsiyati orqali tarbiyalanmogʻidir”* – deb taʼkidlaydi. Keyin u buning ahamiyatiga ham toʻxtaladi:

*“Madrasa maktablarimiz ziyolilarimizga ilmiy taʼlimot bersa, tariqat va xonaqohlarimiz ularning maʼnaviy komilligi va ijtimoiy hayotdagi bilim, tajriba kamolotini taʼminlagandir”*⁴.

Turar Usmon “Tasavvuf tarixi” asarida har bir tariqatni Turkiya jamiyatidagi oʻrni haqida maʼlumot bergan. U kitobda Usmonlilar davlatiga Naqshbandiylikning kirib kelishi va *“eng faol harakatga aylan”* ishi boʻyicha muhim dalillarni keltiradi:

“Fotih Sulton Muhammadxon davrida Xoja Ubaydulloh Ahrorning xalifasi Mulla Ilohiy vositasida Istanbulga ham yetib bordi. XVIII asrda Mavlono Xolid Bagʻdodiyning gʻayrati bilan usmonli davlatida keng tarqalib, eng faol harakatga aylandi. Hatto usmonli podshohlaridan Sulton Vahdiddinning ham xolidiya tariqatiga mansub boʻlganligi rivoyat qilinadi. Istanbulning Oʻzidayoq 65 ta naqshbandiya dargohlarining mavjudligi, bu tariqatning Istanbul va Onadoʻli zaminida qay darajada keng tarqalganini koʻrsatmoqda. XIX asrda

¹ Раҳмонкулова З.Б. XVI – XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2002.

² Турар Усмон. Тасаввув тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 180 б.; Маҳмуд Асад Жўшон. Ислон, Тасаввув ва Ахлоқ / тарж. ва сўнг сўз муаллифи Хожа Сайфуддин Сайфуллоҳ. – Тошкент: Истиқлол, 2000.

³ Туркияда яссавийшунослик: Кул Хожа Аҳмад Яссавийнинг ҳаёти, ижоди ва тариқати мавзусида турк яссавийшуносликлари билан ўтказилган суҳбатлар тўплами. Суҳбат қилувчи ва нашрга тайёрловчи Нодирхон Ҳасан. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 56 б.

⁴ Туркияда яссавийшунослик. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – Б. 21.

*Naqshbandiyaning Onado'lida yana ham keng tarqalishiga mashhur olim va mutasavvif Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy (1893 m.y. v.e.) ulkan hissa qo'shdi"*¹.

Tarixchi olim Guldona Tanieva Algar Ahmad tadqiqotiga tayangan holda mulla Ilohiy, ya'ni mulla Abdulloh Ilohiydan (vafoti 1490 yil) tashqari Xoja Ahrorning yana bir muridi shayx Amir Ahmad Buxoriy (vafoti 1516 yil) ham Istanbulga kelganligi hamda aynan u Turkiyada Naqshbandiya tariqatining takyalari yuzaga kelishiga hissa qo'shganligini qayd etadi².

Shuningdek, tarixchi yana Algar Ahmad tadqiqotiga murojaat qilib, Istanbuldagi Buxoriy takyasi shayxi Makkada qolganligi bo'yicha ma'lumotlarni keltiradi:

*"Istanbuldagi Buxoriy takkasi postnishin³ shayx Abdulatif 1531 yilda Makka ziyoratiga borib, u yerda ziyoratchilar orasida naqshbandiylik g'oyalarini tarqatish maqsadida shu yerda mujovir⁴ sifatida qoladi. Uning muridi Abdurahmon g'uboriy ham 1537 yilda hajga borib, Makkada to'qqiz yil mujovir sifatida muqim yashagan va 1562 yilda Sulton Sulaymon Qonuni tomonidan Makkada unga atab bunyod etilgan naqshbandiylik takkasiga postnishin etib tayinlangan"*⁵.

Filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboevning "Fitrat va Jadidchilik" to'plamidan o'rin olgan "Fitratning Istanbul davrini tavsiflovchi manbalar" maqolasida "Fitrat va uning maslakdoshlari dastlab O'zbeklar tekkesiga qo'ngani" haqidagi dalilni keltirib, bu takya noma'lumligini qayd etadi. Shu ma'noda olim Turkiyaga qilgan safari davomida bu – Sultontepadagi O'zbeklar takyasi ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Shu munosabat bilan H.Boltaboev "Sultontepadagi O'zbeklar tekkesi"ning barpo etilishi, nega aynan bu joy Sultontepa deb nomlanishi, ayni shu yerda Fitrat Turkiya Respublikasi davlat madhiyasining muallifi Mehmed Akif bilan tanishganlik ehtimoli yuqoriligi yuzasidan ma'lumotlarni beradi⁶.

2010 yili "XV–XVII asrlar Movarounnahr san'atida so'fiylik an'analari (Me'morlik, miniatyura, musiqa)" monografiyasi nashr qilindi⁷. Unda me'morlik doktori, professor Mavluda Yusupovanning xonaqohlarni shakllanishi va tuzilishidan kelib chiqqan holda davrlashtirib tavsiflagan tadqiqoti, san'atshunoslik nomzodi, professor Zuhra Rahimovanning miniatyura bilan birgalikda so'fiylar liboslariga ham to'xtalgan ishi, san'atshunoslik doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning maqomlarni sayyoralar, koinot bilan bog'liqligi haqidagi tadqiqoti o'rin olgan. 2020 yili himoya qilingan Ilhom Mahmatqulovning arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD)

¹ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиклол, 1999. – Б. 108.

² Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 254.

³ *po'stnishin* – bir tariqat takyasining shayxi bo'lgan shaxs.

⁴ *mujovir* – Haramda muqim yashovchi, qo'shni.

⁵ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 256.

⁶ Болтабоев Х. Фитрат ва Жадидчилик. Илмий-тадқиқий мақолалар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 20–25.

⁷ Юсупова М., Рахимова З., Ибрагимов О. Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV–XVII вв. (Архитектура, миниатюра, музыка). – Ташкент: издательство журнала "San'at", 2010. – 208 с.

dissertatsiyasi M.Yusupova va L.Mankovskayaning¹ tadqiqotlariga ham tayanganligini qayd etish kerak².

Sotsiologiya fanlari nomzodi Xatira Kamalova Turkiyada chop etilgan “Orta Asya'dan Istanbul'a Tarihi ve Kültürel Bir Mekan: Özbekler Tekkesi” maqolasida turkiyalik olimlarning tadqiqotlari asosida o'rta Osiyo va Turkiyaning ma'naviy hayotida O'zbeklar takyasini tarixiy-madaniy makon sifatidagi ahamiyati (ilm olishni kengaytirish va hunarmandlikni rivojlantirish), Turkiya Milliy Ozodlik kurashidagi o'rmini bayon etgan³.

Tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Kamoliddinning “Istanbuldagi O'zbek tekkellari” maqolasi Istanbuldagi uchta dargoh – Sultontepa, Sulton Ahmet maydonidagi Buxoro, Ayyub tekkellari haqida boshqa ishlarga nisbatan batafsil ma'lumot berilganligi bilan e'tiborlidir. Shuningdek, olim bu ma'lumotlarni turk va Yevropa ilmiy adabiyotlaridan olganligini qayd etib, mavzu O'zbekistonda deyarli o'rganilmaganligini ta'kidlaydi va mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini to'liq beradi⁴. Sh.Kamoliddin Quddusdagi “al-O'zbekiyya xonaqohi” haqida ham maqola e'lon qilgan⁵.

Tarixchi Sh.Mustafaev maqolasida “Bahr al-ulum” nomi bilan mashhur bo'lgan 4 jildlik Qur'on tafsirining muallifi, shayx Sayid Ala ad-Din Ali ibn Yahyo as-Samarqandiy (vafoti taxminan 1455/1456 y.) hamda bu shayx Turkiyadagi Zayni shaharchasida dafn etilganidan keyin uning maqbarasi yonida zoviya qaror topgani haqida ma'lumot beriladi. Yana shayxni Zaynalobiddin ismli o'g'lining avlodi “Zayn o'g'illari” deb nom qozongani va ular shu hududning O'zida ko'plab masjidlar, madrasalarni bunyod qilganliklari qayd etiladi⁶.

Shodmon Hayitov, Kamol Rahmonov, Olimjon Ahmadovning “Buxoro va buxoriylarning jahoniy shuhrati” monografiyasida “Buxoro Naqshbandiya shayxlarining Turkiyadagi O'zbek (takya) tekkellari tarixidan”, “Buxoro (Turkiston) tekkellari tarixi haqidagi kitob” degan maqolalar o'rin olgan⁷.

¹ Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX – начало XX в.) – Ташкент: Фан, 1980. – 184 с.

² Махматкулов И. Т. Ўзбекистоннинг ўтмишдаги тасаввуф масканлари – хонақоҳлар архитектурасини ўрганиш ва улардан самарали фойдаланиш асосларини ишлаб чиқиш. архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 50 б.

³ Kamalova H. Orta Asya'dan Istanbul'a Tarihi ve Kültürel Bir Mekan: Özbekler Tekkesi / 7. Uluslararası Türk Kültürü kongresi: Türk ve dünya kültüründe Istanbul= 7th International Turkish Culture Congress: In Turkish and world culture Istanbul: Bildiriler/yayına hazırlayan: Sınan Gür, Şebnem Ereebeci Çmar. - Ankara: Atatürk Kültür Merkezi, 2011. – S. 171–188.

⁴ Камолитдин Ш. С. Истанбулдаги Ўзбек текеелари // Хорижий шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 28–36.; Камолитдин Ш. Истанбулдаги Ўзбек текеелари // Хорижий шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2024. – Б. 54–64.; Камолитдин Ш.С. Истанбулдаги Ўзбек такиялари. – <https://telegra.ph/Istanbuldagi-%D1%9Ezbek-takiyalari-11-11>. Maqola joylashtirilgan sana: 11.11.2020.

⁵ Камолитдин Ш.С. Ал-Қуддусдаги ал-Ўзбекиё хонақоҳи / Обитель ал-Ўзбекиё в Иерусалиме / Cloister of Uzbek Sufies in Jerusalem // Moziydan sado. – Тошкент, 2013. – 4 (60)-сон. – Б. 29–34.

⁶ Мустафаев Ш. Шейх Али Самаркандий – проводник духовно-культурного трансфера между Мавераннахром и Анатолией (по данным Османских источников) // О'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2018. – 2-сон. – Б. 83.

⁷ Хайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов А. Бухоро ва Бухорийларнинг жаҳоний шухрати. – Тошкент: Наврўз, 2020. – Б. 30–39.

Monografiyada keltirilgan 1898 yilda turk sultoni yorlig'i va "mo'yi muborak" Madali eshon – Dukchi eshonga aslida turk sultoni emas, takya shayxi Ziyovuddin Muhammad (Qoshg'ariy) tomonidan yuborilgani, takyada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati rahbarlaridan Usmonxo'ja Po'latxo'jaevning qabri borligi, 1925 yilda barcha takyalar faoliyati ta'qiqlanganida, milliy ozodlik harakatidagi xizmatlari nazarda tutilib, Uskudardagi takyaning faoliyatini davom ettirish bo'yicha alohida farmon qabul qilinganligi, hozirgi Turkiya Respublikasida Naqshbandiya tariqatiga ixlosmandlar va vakillari 8–10 million kishi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra undan ko'proq bo'lib, aholining 19 foizini tashkil etishi bo'yicha ma'lumotlar e'tiborlidir.

Shuningdek, monografiyada Sulaymon Afandi (1821–1883) haqida ham o'qish mumkin:

“Buxoro amirligi bilan Usmoniylar saltanati o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun usmoniy podshoh tekke shayxlaridan biri Sulaymon Afandini (1821–1883) o'rta Osiyoga yuborgan. Sulaymon Afandi asli Buxoro amirligining Qorako'l tumanidagi Qunduz qishlog'idan bo'lib, 1846 yilda Amir Nasrulloxon (1826–1860) tomonidan turk sultoniga elchi qilib yuborilgandi. U turk sultoni ishonchiga kirib, Istanbulda yashab qolgan, naqshbandiylik ta'limotini targ'ib qilgan. Hatto usmoniy hukmdorining Hindiston, Afg'oniston, Qoshg'ardagi vakili ham bo'lgan”¹.

Monografiyada 2017 yilda Istanbulda chop etilgan “Istanbuldagi Turkiston tekkeleri. Ota yurt va ona yurt o'rtasidagi ma'naviy ko'priklar” kitobi² haqida alohida ma'lumot berilar ekan, Turkiya zaminiga XI asrdanoq yassaviya ta'limotini yoyish uchun Yassaviy shayxlari tashrif buyurgani, Bahouddin shayxlari XIV asrdan, asosan XVI asrdan ko'plab kela boshlaganligi ta'kidlanadi.

Shu bilan birga og'zaki tarix metodiga asosan bo'lsa-da monografiyada Ibrohim Adham afandi takyaning birinchi shayxi sifatida ko'rsatilishi kabi kamchilikka yo'l qo'yilgani ham muallif(lar) uchun mavzu hali yangiligini ko'rsatadi. Qolaversa, muallif(lar)ning O'zi ham takyalar tarixi haqida alohida ilmiy tadqiqotlar olib borish kerak, degan xulosaga kel(ish)gan³.

Shuningdek, Maqsud Bebitovning “Turkiya Antakiyadagi O'zbeklar takiyasi tarixi” maqolasini alohida qayd etish kerak. Unda takya shayxlari, takyaning doimiy a'zolari va musofirlari (mehmonlari) alohida ko'rib chiqilganligi, bevosita Usmonlilar davlatiga oid arxiv hujjatlariga havola berilganligi bilan e'tiborga loyiq⁴.

Ma'lumki, O'zbek takyalari Haj ziyorati bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu borada Guldona Tanievaning “XVI–XIX asr o'rtalarida haj ziyoratining o'rta Osiyo xalqlari ma'naviy, mafkuraviy va ijtimoiy hayotida tutgan o'rni” mavzusidagi doktorlik

¹ Хайитов Ш., Рахмонов К., Ахмадов А. Бухоро ва Бухорийларнинг жажоний шухрати. – Тошкент: Наврўз, 2020. – Б. 34.

² Istanbuldagi Turkistan Tekkeleri (Ata yurt ile Ana yurt arasindaki manavi köprüler). – Istanbul, 2017. – 294 s.

³ Хайитов Ш., Рахмонов К., Ахмадов А. Бухоро ва Бухорийларнинг жажоний шухрати. – Тошкент: Наврўз, 2020. – Б. 39.

⁴ Bebitov M.A. Turkiya Antakiyadagi O'zbeklar takiyalari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Volume 1, Issue 11. – B. 1233–1241.

dissertatsiyasi va ushbu tadqiqot asosidagi “XVI–XIX asr birinchi yarmida o‘rta Osiyo xalqlarining haj ziyorati tarixi” nomli monografiyasini qayd etish kerak¹.

Ushbu monografiyada shu davrda o‘rta Osiyo shaharlari bilan Makka va Madina shaharlarini bog‘lagan asosiy tarixiy haj yo‘llari, safar qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish, jumladan, yo‘llar xavfsizligini ta‘minlash masalalari o‘rta Osiyo hukmdorlari bilan Usmonli turk sultonlari va Rossiya imperatorlari o‘rtasidagi tashqi aloqalarda aks etishi, haj safarlariga doir ma‘lumotlar tahlil qilingan.

G.Tanieva o‘rta Osiyodan haj ziyorati tarixini – haj yo‘llarining yo‘nalishlari kesimida ko‘rib chiqib, ular XVI–XIX asrlarda uchta bo‘lganligini belgilaydi: shimoliy – Rossiya imperiyasi hududi va Qora dengiz orqali, janubiy – Hindiston va arab dengizi orqali, markaziy – Safaviylar davlati sarhadlari bilan harakatlanishni tashkil etgan. Garchi, o‘rta Osiyodan ziyoratchilar Usmonlilar saltanati hududiga Safaviylar davlati (markaziy) orqali ham kirib kelgan² bo‘lsa-da, Rossiya (shimoliy) orqali yo‘nalish asosiy hisoblangan. Tadqiqotda buning bir qancha sabablari qayd etiladi:

– XVI asr boshida Eronda Safaviylar davlatining, Yettisuvda esa Qozoq xonligining tashkil topishi o‘rta Osiyoning nisbatan qurshovda qolishiga sabab bo‘lib, bu yerdagi xalqlarning xalqaro savdo aloqalarini, hajga safar qilish imkoniyatlarini biroz cheklab qo‘ygan;

– bu davrda Eronda islomdagi shia, Movarounnahrda esa sunniy yo‘nalishlarning davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanishi ikki davlat o‘rtasida qarama-qarshi mafkuraviy qarashlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan;

– 1498 yilda Vasko da Gama tomonidan Portugaliyadan Hindistonga tomon suv yo‘lining ochilishi bilan portugallar butun XVI asr davomida (aniqrog‘i 1622 yilda inglizlar tomonidan bu suv yo‘lining ulardan tortib olinguniga qadar) Hindiston yarim orolidan to Eron portlari va Makkagacha bo‘lgan suv yo‘llarini O‘z qo‘llarida ushlab, savdo va haj ziyoratchilari tushgan kemalarning qatnoviga jiddiy to‘siq bo‘lgan.

Bu esa, “shimoliy yo‘ldan harakatlanishga ehtiyoj”ni oshishiga olib kelgan³. Keyinroq, “Sibirning Rossiya tomonidan qo‘shib olinishi, yangi shahar – qal‘alarning barpo etilishi natijasida” “toshkentlik, qo‘qonlik yo‘lovchilar” – “ziyoratchilarning Rossiya imperiyasi orqali haj safarini amalga oshirishi jadallashdi”⁴.

Shu bilan birga shimoliy yo‘nalishda harakatlanish faollashuvi Usmonlilar davlatining kuchayishi hamda sulton – islom dunyosida xalifa deb hisoblana boshlanishi bilan ham bog‘liqdir. Sulton – musulmonlar rahnamosi sifatida haj safari

¹ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халкларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – 328 б.; Таниева Г.М. XVI–XIX аср ўрталарида ҳаж зиёратининг Ўрта Осиё халқлари маънавий, мафкурaviy ва ижтимоий ҳаётида туган ўрни. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 79 б.

² Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халкларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 131.

³ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халкларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 122, 212. Байкова Н.Б. Роль Средней Азии в Русско-индийский торговых связях (вторая половина XVI – первая половина XVIII в.) – Ташкент, 1964. – С. 4.

⁴ Б. 125 – 126.

bo'yicha tegishli tadbirlarni amalga oshirgan. Bu borada *"M.Miropiev asarida o'rta asrlarda butun dunyo musulmon ziyoratchilari turli yo'llar bilan Bag'dod, Damashq, Qohira, Sano shaharlariga oqib kelishi, Damashqda turk sultonlari tashkillashtiradigan har yilgi rasmiy haj karvoni dastlab poytaxt Istanbulda to'plangan, keyin Uskudar – Eskişehir – Aksheher – Koniya – Adana – Damashq yo'li bilan harakatlanishi haqida bayon qilingan"*¹.

o'rta Osiyoda ba'zan maxsus haj karvonlari shakllantirilgan bo'lsa-da, ziyoratchilar asosan savdo karvonlari tarkibida borishgan. Shu ma'noda G.Tanieva haj ziyorati tarixi savdo yo'llari tarixi bilan bog'liqligi, shimoliy haj yo'nalishlarini, ulardagi qatnov mavsumlarini aniqlashda G.A. Mixaleva, G.A. Agzamova tadqiqotlari² ahamiyatli bo'lganligini qayd etadi³.

Shu bilan birga monografiyada XVIII–XIX asrlarda o'rta Osiyo ziyoratchilarining shimoliy haj yo'lida erkin harakatlanishi vaqti-vaqti bilan taqiqlanganligi ham ta'kidlanadi. Bunga 1717 yilda buxoroliklar tatarlar, qashg'arliklar bilan birga turk shaharlarida bo'lib, davlat vaziri bilan maxfiy uchrashgani Rossiyada ular Usmonlilar davlati uchun ayg'oqchilik qilishda gumon qilingani, qolaversa, 1768–1774, 1789–1791 va 1828–1829 yillardagi Rossiya – Turkiya urushlari ta'sir o'tkazgan⁴.

Turkiyadagi O'zbek takyalari haqida ma'lumotlar monografiyaning *"Haj yo'llaridagi sharoit va xavfsizlik"*, *"Muqaddas shaharlarga qilingan safarlarning xalqlar madaniy-ma'rifiy hayotiga ta'siri"* nomli paragraflarida o'rin olgan. Xususan, G.Tanieva turkiyalik tarixchi Nurten xonimning tadqiqoti asosida XVI asrda xorazmlik shayx Husayn Xorazmiy ikki yillik haj safari davomida ko'plab amaldorlar qatorida Usmonli turk sultonining eng ishonchli vaziri Ahmad posho ham unga murid tushganini qayd etadi. Yoki akademik Bo'riboy Ahmedov asaridan ashtarxoniylar sulolasi vakillaridan biri hoji Mir Muhammad Salim haqidagi ma'lumotni keltiradi:

*"Mir Muhammad Salim 1712 yilda Bag'dod, Halab, Damashq, Istanbul orqali haj safarini amalga oshirib, Istanbulda Sulton Ahmad III (1703 – 1730/1731) tomonidan qabul qilinadi, to'rt yil shu yerda yashab qolib, 1776 yil Makkaga ziyoratga boradi"*⁵.

¹ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 130.; Миропієв М. Релігійозне і політичне значення хаджа или священного путешествія мухаммедань вь Мекку для совершенія релігійознаго празднства. Сочиненіє студента Казанской духовной академії XIX учебнаго курса (1874–1878 гг.) Михаила Миропієва. – Казань, 1877. – С. 121.

² Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. – Ташкент, 1982. – 96 с.; Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): автореферат дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 1990. – 21 с.

³ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 28 – 30.

⁴ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 170–171.

⁵ Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII веков (Письменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985. – С. 103.; Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 257–258.; Kılıç-Schubel, Nurten. 2006. Rethinking the Ties Between Central Asia and the Ottoman Empire: Travels of a Central Asian Shaykh in Ottoman Empire in the 16th Century. In Papers of VIIIth International Congress of the Economic and Social History of Turkey. June 18–21, 1998. – Bursa, 1998. – PP. 4–5, 17–19.

Monografiyada takyalarga borgan buxoriylarning turk madaniyatida ijobiy ta'sirga ega bo'lganligi haqida ham dalillar keltirilgan. Xususan, XVI asrda yashagan mashhur xattot Sayyid Abdulloh Buxoriy Istanbulga borib, u yerda nasta'liq xatida badiiy ko'chirish usulining keng tarqalishiga sababchi bo'lgani, vatani o'rta Osiyo bo'lgan ebru (abru) san'ati bilan dastlab buxorolik Naqshbandiya tariqati namoyandalari shug'ullangani va bunda aynan takyaning o'rni borligi qayd etiladi¹.

Mavlon Shukurzodaning O'zbekiston va Turkiya munosabatlariga bag'ishlangan kitobida Istanbuldagi Uskudar o'zbeklar takyasi bo'yicha yozar ekan, Shayx Ibrohim Adham avlodlari haqida ma'lumot beradi. Xususan, uning nevarasi Munir Ertegun Kamol Otaturkning Lozana Kelishuvi Turk qo'mitasining huquqiy masalalari bo'yicha maslahatchisi, Turkiyaning Shveysariya, Fransiya, Buyuk Britaniya qirolligida, undan keyin AQSHdagi elchisi bo'lganligi, vafotidan keyin takyadagi qabristonga, buvasi Shayx Ibrohim Adham afandi yoniga dafn etilganligi, keyinchalik uning ikki o'g'li – milliarder aka-ukalar Nesuhi va Ahmet Ertegunlar ham shu qabristonga dafn etilganligi qayd etiladi².

Bundan tashqari ziyolilar Turkiyaga safarlarida davomida takyalarga tashriflari haqida ma'lumotlarni e'lon qilishmoqda. Ular orasida jurnalist va yozuvchi Karimberdi To'ramurodning "O'zbeklar tekkesi nima?" nomli maqolasini, O'zbekistonning mashhur Ziyoz elektron kutubxonasi asoschisi, jurnalist Davronbek Tojialievning "Turkiyadagi O'zbek xonaqohlariga nazar" nomli xabarini keltirish mumkin³.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan tadqiqotlar va maqolalar asosida O'zbekistonda Turkiyadagi takyalar o'rganilishi holati bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

ko'p hollarda takyalarga oid ma'lumotlar haj ziyorati, tasavvuf, sharq me'morligi, taniqli shaxsiyatlar faoliyati doirasidagi tadqiqotlar va maqolalar tarkibidan o'rin olgan;

ayrim maqolalarda takyalarning ko'p qirrali faoliyati qisqa holda bayon etilgan bo'lib, mualliflarning tanlangan ob'ektlari birligidan ma'lumotlar deyarli bir xil taqdim etilgan;

O'zbekistonda takyalar deyarli o'rganilmaganligidan ba'zan yanglish ma'lumotlar berilgan, shuningdek, atamani aniqlashtirish masalasi mavjudligi kuzatilgan;

O'zbek takyalari yoritilishi umumiy holda turk va boshqa, jumladan, g'arb mamlakatlari olimlarining tadqiqotlariga, og'zaki tarix metodiga tayangan suhbatlar, takya ko'rinishi va tuzilishi esa, mualliflarning (H.Boltaboev, G.Tanieva, K.To'ramurod, D.Tojialiev) safarlari davomidagi tasvir bayonlariga asoslangan bo'lib, birlamchi manbalar hisoblanadigan Turkiya arxivlari hamda takyalar, Naqshbandiya

¹ Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – Б. 260–261.

² Shukurzoda M. Qardosh va qondoshlar hamkorligining keng qamrovli strategik sheriklik uqlari – Toshkent: «NI SO POLIGRAF», 2023. – B. 348–349.

³ Тожиалиев Д. Туркиядаги ўзбек хонақоҳларига назар. – <https://kun.uz/kr/03778684?q=%2F03778684>. Joylashtirilgan sanasi: 21.11.2016; Тўрамурад К. Ўзбеклар теккеси нима? – <https://zarnews.uz/post/ozbeklar-tekkesi-nima>. Joylashtirilgan sanasi: 06.01.2021.

tariqati shayxlari avlodlarida saqlanayotgan hujjatlar deyarli jalb etilmagan (M.Bebitovdan tashqari);

G.Tanieva “XVI–XIX asr birinchi yarmida oʻrta Osiyo xalqlarining haj ziyorati tarixi” nomli monografiyasida boshqa manbalar bilan bir qatorda Samarqandda chop qilingan 3 jildlik “Usmonlilar hujjatlarida Markaziy Osiyo tarixi” toʻplamidan oʻrin olgan arxiv hujjatlaridagi maʼlumotlardan foydalangan;

soʻnggi yillarda Turkiyadagi Oʻzbek takyalariga oid chiqishlar birmuncha jonlanganligi kuzatilganligi olimlarning Oʻzida qiziqish ortib borayotganligini namoyon etadi, deb belgilash mumkin.

Takya atamasi

Oʻzbekistondagi tadqiqot va maqolalarda Turkiyadagi Oʻzbek takyalariga nisbatan takiya, takʼya, taʼqiya, takya, teke, xonaqoh, dargoh, Oʻz holicha tekke tarzida qoʻllanilayotganligi ulardan qay birini ishlatish oʻrinli ekanligini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Professor Mustafa Karaning Turkiyada chop qilingan Islom entsiklopediyasidagi “tekke”ga bagʻishlangan maqolasida Qohirada nashr qilingan “al-Muʼjam al-vasit” lugʻatida takya izohsiz turkiy soʻz sifatida qayd etilganligi keltiriladi¹. Shuningdek, maqolada fors manbalarida “xonaqoh”, “dargoh” ishlatilishi taʼkidlanadi. Biron tariqat namoyondalari – shayxlar faoliyat yuritgan bu maskanlar oʻrta Osiyoda ham shu nomlar bilan yuritilgan. Shu bilan birga arxiv hujjatlariga tayangan holda Turkiyadagi takyalar baʼzan dargoh deb nomlanganligini ham koʻrish mumkin. Balki shu jihat professor Shamsiddin Kamoliddinni Oʻz maqolasida tekke bilan bir qatorda dargoh soʻzini ham qoʻllashiga asos boʻlgandir.

“Oʻzbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda” kitobidagi bir necha hujjatlarda tekke Oʻzbek tiliga “jamoat”, “jamiyat” tarzida tarjima etilgan². Albatta, bu tashkilotlarda shayx atrofida jamoat shakllanishi nuqtai nazaridan mantiqan toʻgʻri deyish mumkindir. Lekin, Oʻz tilimizda takyaxona, takya kabi atamalar ayni shu maʼnoni anglatishini nazarda tutish kerak. Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasida “takyaxona” soʻziga quyidagicha taʼrif berilgan:

“asosan karvonlar yoʻli ustida, turli ziyoratlar maqsadida tez-tez mehmonlar kelib turadigan joylarda qurilgan” boʻlib, “musofir, kambagʻal, uysiz shaxslarga vaqtincha yotoq, boshpana sifatida bepul xizmat koʻrsatadigan mehmonxona”³.

Turar Usmonning “Tasavvuf tarixi” asarida ham “takya” soʻzi qoʻllaniladi. Shuningdek, bu maskan *“ribot, zoviya, xonaqoh, dargoh, ostona kabi nomlar bilan ham”* atalishi, ularning katta-kichikligi va faoliyati jihatidan baʼzi farqlar mavjudligi qayd etiladi. Xususan, *“bir tariqatning barcha takyalari oʻsha tariqat shayxi*

¹ TDV İslâm Ansiklopedisi 40-Cilt. – İstanbul: TDV Yayınları, 2011. – S. 368.

² Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. Oʻzbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 127, 166, 299.

³ Такяхона – <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/takyaxona-uz/>.

*joylashgan ostona yo xonaqoh degan takyaga qarashli bo'ladi. Bu takyaga "pir uyi" ham deyiladi". Shuningdek, "kichikroq takyaga esa zoviya deyiladi"*¹.

Muallif tariqat ahlini birlashtirish qatorida xalq orasida ham ta'lim, tarbiya va madaniyat muassasasi sifatida ta'sir kuchiga ega bo'lgan takya haqida ma'lumot berar ekan, uning mukammal ko'rinishini mavlaviy takyasi misolida tushuntiradi:

"takya – o'n bo'limdan iborat bo'lib, samo'xona, maqbara, chillaxona, hujralar, darvishxonalar, salomlashuv xonasi, haram, ombor va oshxona, qahvaxona o'chog'i, qafas (muborak kechalarda takyaga kelgan ayollar o'tiradigan joy), matrab (samo' vaqtida na't va ilohiy qo'shiq aytadigan kuylovchilar o'tiradigan joy). Salomlashuv xonasi shayxning joyi, haram esa uyidir.

*Saljuqiy va usmonli davriga oid takyalar atrofida ko'pincha qabriston, hammom, masjid, molxona, ba'zan tegirmon joylashgan. Takyadagi vazifador shaxslar va ularning yaqinlari vafot etganida takya ichkarisiga yoki oldidagi qabristonga dafn etilgan"*².

Shunday qilib, odatda takya, xonaqoh, dargoh so'zlari ma'nodosh sifatida qo'llanilmoqda. Ostona (Mustafa Kara maqolasida "ositona"), zoviya esa uning turlari hisoblanadi.

Ushbu maqolaning mualliflari fikricha ilmiy muomalada "ta'qiya"³ tarzida qo'llanilishi to'g'ri deb bo'lmaydi. Sababi, muxoliflar oldida e'tiqodni maxfiy tutish – "taqiya" yoki bosh kiyim – "taqiyah" (turkchada takke) ekanligidan kelib chiqqan holda atamalarni ishlatishdagi chalkashliklarga zamin bo'ladi.

Mazkur mulohazalar asosida qayd etish kerakki, Turkiyadagi O'zbek tekkellarini "takya" yoki O'z holida, ya'ni "tekke" sifatida ishlatilsa to'g'ri bo'ladi, degan xulosa qilish mumkin.

Arxivlar hujjatlari to'plamlari

O'zbek takyalari tarixi, ular bilan bog'liq shaxslar faoliyati, haj safarlarini o'rganishda birlamchi manba vazifasini o'taydigan arxiv hujjatlarining o'rni katta. Bu borada 2011 va 2012 yillar davomida Samarqandda joylashgan Xalqaro Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti va Turk arxivchilari jamiyati hamkorligida 3 jildlik "Usmonlilar hujjatlarida Markaziy Osiyo tarixi" to'plami chop qilinganligi e'tiborlidir⁴.

Birinchi jildda o'rta Osiyodan haj ziyoratiga borganlarning ikki davlat diplomatik aloqalarida ishtirokiga oid bir necha hujjatlar o'rin olgan. Xususan, Buxoro amirining maktubini yetkazgan va hajdan qaytayotgan elchi Muhammad Fozilning Vataniga yetib olishi uchun yo'l xarajatlariga 7500 qurush ajratish haqida xatt (farmon) qabul qilingan.

¹ Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – Б. 99.

² O'sha joyda.

³ Махматқулов И. Т. Ўзбекистоннинг ўтмишидаги тасаввуф масканлари – хонақоҳлар архитектурасини ўрганиш ва улардан самарали фойдаланиш асосларини ишлаб чиқиш. архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 9.

⁴ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – 310 с.; Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – 222 с.; Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – 313 с.

Bu hujjat hijriy 1235 yil 29 zulhijjaga (milodiy 1820 yil 7 oktyabr) taalluqli bo‘lib, to‘plamdagi tartibga ko‘ra 24-hujjat – (24) sifatida berilgan¹. Shuningdek, to‘plamda u bilan bog‘liq bir necha hujjatlar o‘rin olgan². Aytish kerakki, Mirzo Muhammad Fozil hijriy 1239 yil 29 zulhijjada (milodiy 1824 yil), 1242 yil 29 zulhijjada (milodiy 1827 yil) ham haj niyatida kelganligi hamda uning Buxorodan maktub va Qur‘on keltirgani qayd etilgan holda podshoh – turk sultoni huzurida qabul qilinishi haqidagi xatlar (26), (31) o‘rin olgan³. Uni 1827 yili pul ko‘rinishida bir martalik rag‘batlantirish haqida ham xatt (34) qabul qilingan⁴. Shuningdek, to‘plamda tafsir va fiqh bo‘yicha so‘ralgan kitoblarni olish uchun 5453 qurush ajratish, savdoda yo‘q kitoblarni esa saroy kutubxonasidan olish hamda ularni elchiga taqdim etish haqida xatt (30) ham bor⁵.

E‘tibor berilsa Mirzo Muhammad Fozil bilan bog‘liq hujjatlar turli yillarga taalluqli bo‘lsa-da har safar tashrifi hijriy taqvim bo‘yicha zulhijja oyining 29-kuniga to‘g‘ri kelgan.

To‘plamning bu jildiga Turkiyadagi O‘zbeklar takyalariga oid bir hujjat kiritilgan bo‘lib, unda hijriy 1284 yil 6 sha‘bon (milodiy 1867 yil 3 dekabr) kuni Hukumat tomonidan Moliya nazoratiga “O‘zbeklar xonaqohi postninishini” shayx Sulaymon Afandining murojaatiga asosan xonaqohda 8 kun davomida bo‘lgan Buxoro elchisi Muhammad Paris afandiga ishlatilgan 4000 qurush, shuningdek 33 kun davomida bo‘lgan elchi yordamchisi va uni 4 hamrohining har biri uchun kuniga 50 qurush hisobida xarajatlarni qoplashga topshiriq berilgan (91)⁶.

To‘plamning 2-jildiga din va ma‘naviyatga oid 79 hujjat jamlangan bo‘lib, unda takyalar, Naqshbandiya tariqati shayxlari, hojilarning xavfsizligini ta‘minlash, ularga mablag‘ ajratish, hududlarning voliylari tomonidan yordam ko‘rsatilishi, hojilar vositasida hukmdorlar o‘rtasida maktublar almashinuviga oid qator masalalar bo‘yicha ma‘lumotlar o‘rin olgan.

Jumladan, Jidda voliysiga Madinaga ketayotgan buxorolik Hoji Said afandiga doimiy yashashga Haramdan yer va munosib miqdorda maosh tayin etishi (5), Makka amiri va Jidda voliysiga Makkaga ketayotgan buxorolik Hoji Abdurazzoqni madrasalardan biriga joylashtirish va sharoitlarini ta‘minlashga oid yazilarni (xatlarni – (49)) keltirish mumkin⁷. Hoji Abdurazzoqqa berilgan xat – hijriy 1278 yil 29 zulhijjaga (milodiy 1862 yil 27 iyun) taalluqli bo‘lib, unga bundan 9 oy oldin ham (ya‘ni, 1728 yil 13 rabi-ul-ayval (1861 yil 18 sentyabr)) ayni shu mazmunda xat (3-jild (27)) taqdim

¹ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 72–74.

² To‘plamdagi tartibga ko‘ra 1-jildida (22), (25), (26), (27), (29), (31), (34), 3-jildida (3), (4)-raqamli hujjatlar.

³ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 77–80; 92–93.

⁴ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 99–102.

⁵ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 89–91.

⁶ История Центральной Азии в османских документах. – Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – С. 235–236. Bu hujjat 2-jildida ham (51) raqam ostida keltirilgan: История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 139–141.

⁷ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 26–27, 135–136.

etilgan¹. Demak, u niyatini 9 oydan keyin amalga oshirishga muvaffaq bo'lar ekan, xatini yangilab olgan. Shuningdek, to'plamda haj va hojilar bilan bog'liq boshqa hujjatlar ham o'rin olgan².

Bundan tashqari to'plamda Naqshbandiya tariqati shayxlariga, darvishlariga doir hujjatlar ham berilgan. Ular orasida Istanbulning Kabatosh degan joyida yashagan va Madinaga doimiy yashashga ketayotgan buxorolik Xoji Sharif afandi va uning oilasiga oyiga 150 qurush maosh hamda bir miqdor bug'doy tayin etish (2), Moliya nazoratiga Qo'niyoda yashovchi masnaviyxon, buxorolik shayx Abdulhamid afandining maoshiga ustama tayinlash (36), (43), Shom voliysi Sayyid Mahmud Amin afandining Buxoroda dafn etilgan Amir Kulol hazratlari avlodi va Naqshbandiya tariqati shayxi Abdulvohid afandi hamda uning muridlariga yordam ko'rsatish (37), shayx Abdulvohid afandi va uning muridlariga ovqatlanishi uchun kuniga 120 qurushdan 2 oylik nafaqa tayinlash (41), Buxorodan shayx Hoji Ahmad afandi "Istiob" nomli kitobini sultonga topshirish uchun olib kelgani va u 1000 qurush bilan taqdirlangani haqidagi hujjatlar (40), (42), shuningdek, Xorijiya (Tashqi ishlar) nazoratining Bag'dod voliysiga Istanbuldagi Qalandarxona dargohi darvishlaridan Hoji Abdulloh afandini Buxoroga qaytishi munosabati bilan hurmat ko'rsatish va ko'mak berish haqidagi topshirig'i (1) bor³.

2-jildida Istanbuldagi 3 takyaga oid hujjatlarga o'rin berilgan. Jumladan, Mehmed Posho Yokushi (tepaligi) takyasi bir necha hujjatda (7), (11), (39), (52) ko'rsatilgan bo'lib, birida Buxoro hokimining (ya'ni amirining) aqrabosi Ahmadxon va uning 10 hamrohiga bir oy hisobida pul berish belgilangan bo'lsa, ikkinchisida Mehmed Posho takyasi shayxining istagiga (hujjatda talabiga) ko'ra Xorijiya nazorati Tehrondagi elchixonaga Buxoroga qaytayotgan shayx Yusuf afandiga hurmat va yordam ko'rsatishga amr bergan⁴. Uchinchi hujjatda Moliya nazorati tomonidan 1278-yili (1861-yili) vafot etgan postnishin Hoji Muhammad afandini qiziga otasining ishlatilmay qolgan maoshidan hissa ajratishga topshiriq berilgan⁵. To'rtinchi hujjat esa O'zbeklar takyasiga zarur ba'zi narsalarni olish haqida bo'lib, takyaga aynan nimalar yetkazilganligi ko'rsatilmagan, balki bu og'zaki shaklda amalga oshirilganligi qayd etilgan⁶.

Yana Sultonahmeddagi O'zbeklar takyasiga oid hujjatlarda shayx Hoji Muhammad afandiga yig'ilib qolgan maoshini berilishi (18), uning vafotidan keyin

¹ История Центральной Азии в османских документах. – Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – С. 80–81.

² 1-jildida (1), (14), (15), (35), (66), (69), (70), (111); 2-jildida (4), (6), (15), (21), (22), (23), (25), (26), (27), (28), (29), (30), (31), (45), (47), (57), (59), (60), (61), (62), (65), (69), (70), (71), (72), (73), (74), (75), (77), (78); 3-jildida (6), (13), (22), (58), (63), (64)-raqamli hujjatlar.

³ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 14–19, 100–104, 110–119. Yana shayxlar haqida 2-jildida (12), (13), (16), (17), (20), (24), (35), (50), (54); darveshlar bo'yicha 2-jildida – (10), 3-jildida – (8)-raqamli hujjatlar.

⁴ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 30–31, 40–41.

⁵ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 108–109.

⁶ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 142–143.

o'rniga o'g'li Abdulloh afandi tayinlanishi (19), dargohga joylashmoqchi bo'lgan uch kishini kafillikka olinishi yoki vataniga majburan jo'natilishi (32), Erzurum voliysiga dargohda yashagan va vataniga qaytayotgan buxorolik olim, shayx Sayyid Abdulhafiz afandi va uning 4 hamrohiga yordam ko'rsatilishi so'ralishi (48), hijriy 1336 (milodiy 1920) yilda O'zbeklar dargohida muqim yashovchi buxorolik Hoji Abdullohni va uning olti kishidan iborat oilasini Qo'niyoga chiqib ketishi uchun izn berilishi (79) bo'yicha ma'lumotlar aks etgan¹.

Sulton Ayyubdagi O'zbeklar takyasi bo'yicha hujjatlarda postnashin shayx Muhammad afandiga 500 qurush miqdorida maosh tayinlash (55), Istanbul politsiya mudirligining taklifnomalarni tarqatishga izn olinmaganligi sababli O'zbeklar dargohida Buxoroning Hisor voliysi tomonidan bunyod etilgan jome' masjidi ochilishini qoldirish haqida 1318-yil 9 shavvoldagi (1901-yil 30-yanvar) tushuntirishi (58), Hijozdan Istanbulga kelib, takyaga qo'ngan va kelib chiqishi Qoshg'arning Xo'tan shahridan bo'lgan Abidin ibni Xudoverdi, jami 7 kishini (ba'zilar oilalari bilan kelgan) vataniga qaytish xarajatlarini qoplash bo'yicha so'rovi (hujjatda talablari, (68)) kabi masalalar qamrab olingan².

Shuningdek, to'planning 2-jildida Madinadagi ((9), (56)), Makkadagi ((14), (44), (46)) Misrdagi (53) O'zbeklar takyalari bilan bog'liq hujjatlar ham berilgan.

To'planning 3-jildida (17) va (18) raqamlari bilan berilgan 2 hujjat bo'lib, ularda hijriy 1273-yili o'zbek shayxi Muhammad afandiga Usmonlilar saltanatida vafot etgan o'zbeklarning meroslari bilan bog'liq masalalarni o'rganish va hal etish vazifasi topshirilgan. Unga Istanbulda vafot etgan o'zbeklarning mulkini sotish va olingan pulni davlat g'aznasida saqlash yuklatilgan. Shu bilan birga vafot etganlarning avlodi murojaat qilganida shayx Muhammad afandi ularga mulkni berishi ham belgilangan³.

Shuningdek, 3-jildidan 1857-yili Silistr muhorabasida qatnashgan buxorolik shayx Fathullohni 5 darajali Majidiy nishoni (ordeni) bilan taqdirlash (20), 1901-yili Buxorodan Istanbulga oilasi bilan birga kelgan me'mor Mo'min afandini qurilish ishlariga jalb etish (62), 1915-yili tekshiruvlar natijasida Uskudardagi Selmanog'a degan joyda yashayotgan buxorolik Murod afandiga tabaalik (fuqarolik) berishni rad etishga jiddiy sabablar yo'qligi (79) bo'yicha hujjatlar ham o'rin olgan⁴.

2022-yili Istanbulda "O'zarxiv" agentligini Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari Bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda nashr qilingan "O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda" kitobini alohida ta'kid etish kerak⁵. Bu

¹ История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 56–59, 91–92, 131 – 134, 214–216.

² История Центральной Азии в османских документах. – Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – С. 150–151, 157–158, 185 – 186. Qoshg'arning Xo'tan shahridan kelgan hojilarning xarajatlarini qoplash bo'yicha talabi (76) 3-jildida ham keltirilgan: Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – С. 234–235.

³ История Центральной Азии в османских документах. – Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – С. 56–62.

⁴ История Центральной Азии в османских документах. – Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – С. 65–66, 182–183, 240–242. Shuningdek, Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda (Istanbul, 2022) kitobining 186–187 betlarida ham bu hujjat berilgan.

⁵ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – 368 b.

kitobda ilk bor ham O'zbekiston, ham Turkiya arxiv hujjatlari jamlangani, usmonli turk tilidagi hujjatlar matnlari hozirgi turk va o'zbek tillarida berilganligi bilan diqqatga sazovor. Qolaversa, Samarqandda chop etilgan 3 jildlik to'plamdagi hujjatlar asosan XVIII asr oxiridan boshlangan bo'lsa, bu kitobdagi hujjatlar XVI asrdan boshlangan.

“O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda” kitobida haj masalalariga oid ham bir qancha hujjatlar berilgan bo'lib, ular orasida milodiy 1568-yil 22-yanvari sanasiga oid buxorolik shayx Ahmad Yassaviy naslidan bo'lmish va haj safariga otlangan shayx Zangiy hamda darveshlarining Shomga sog'-salomat yetkazilishlariga doir buyrug'i, 1583-yil 30-may sanasida imzolangan Hazrati Umar naslidan bo'lgan haj ziyorati uchun otlangan movarounnahrlik shayx Ahmad Sodiq va hamrohlariga (matnda 60 darveshi) tuya, ozuqa va haj bilan bog'liq boshqa ehtiyojlarining davlat tomonidan ta'minlanishiga doir buyrug'i bor¹.

Kitobda O'zbeklar takyasi qayd etilgan hujjatlar ham bo'lib, ulardan biri – Usmonli davlatidan panoh so'ragan va Bag'dod atrofida joylashtiriladigan Movarounnahr ulamolari – shayx Abdurahim, shayx Hamza, shayx Muhammad Salim, shayx Abdukarim va ularning hamrohlariga yo'l xarji berilishiga doir 1797-yilga taalluqli buyruqdir. Unda ular Uskudardagi O'zbek takyasida mehmon bo'lgani keltirilgan².

Shuningdek, Istanbulda yashagan Toshkent xonlari naslidan bo'lgan Sayyid Sultonxon Muhammad Pahlaviyning Movarounnahr xoni huzurida xizmat qilishi xususida 1866-yilga oid xonga bir maktub yozilishi istagiga doir arizasida³ O'zbeklar takyasi shayxining nomi keltirilgan:

“O'zbeklar dargohi shayxi Sulaymon afandi ham kamina duogo'yingizning fikr va maqsadlari ila iztirobini huzuringizda zoti oliylariga og'zaki atroflicha ifoda etib iltimos qildi”⁴.

Arizalarda O'zbeklar takyasi shayxining qo'llab-quvvatlashi alohida qayd etilishi ham shayxning Usmonli davlatida nufuzi katta bo'lganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari kitobda bevosita takyalar bilan bog'liq hujjatlar ham mavjud. Xususan, Sultonahmed atrofida Mehmed Posho tepaligida joylashgan O'zbeklar takyasiga tayinlangan guruch miqdorining orttirilganligiga doir 1852-yildagi nishon, O'zbeklar dargohining shayxi Sulaymon afandining matbaa ta'limi berilishi uchun harf teruvchi va boshqa kerakli dastgohlar, materiallarni so'ragan arizasiga doir 1872-yildagi buyruq, uning Balx, Buxoro, Qo'qon va Qoshg'ar hojilari foydalanishi uchun Jiddada qurdirgan zoviyaning (turk tilidagi matnda ba'zi o'rinlarda “tekke” ham ishlatilgan) suvoq ishlarini tugallash hamda bir quduq qazdirilishi uchun davlat tomonidan yordam ko'rsatish talabiga doir 1878-yildagi arizasi va boshqa hujjatlar berilgan⁵. Aytish kerakki, 1295-yilning 18 zulqa'da kunida Davlat Sho'ro

¹ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 50–51, 70–71.

² Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 126–129.

³ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 204–206.

⁴ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 205.

⁵ Belgelerle Türkiye–Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston–Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 166–169, 220–221, 238–242. Kitobning 243-betida shayx Sulaymon afandining surati ham berilgan.

boshqarmasidan Hijoz voliyiligiga xat yo'llangan bo'lib, unda zoviya tugallanishi uchun kerak bo'lgan sarf-xarajat Moliya idorasi tomonidan ifoda etilishi bildirilib, himmat qilinishi buyurilgan¹. Shuningdek, Sulaymon afandi chig'atoycha va usmonlilar tili bo'yicha tuzgan lug'at kitobi uchun 1883-yili to'rtinchi darajali Usmonlilar nishoni bilan mukofotlangan².

Ushbu takyaning boshqa bir shayxi Abdulmajidning Sadri a'zamga 1901-yil 23-fevralda yo'llagan xatida u Buxoro hukmdori Sayyid amir Abdulahadxon va Buxoro shayxulislomi Sayyid Badriddin afandini Hijoz temiryo'liga yordam berishga yo'naltirilishi ko'rsatilgan va o'zining sa'y-harakatlari natijasida 200 ming rublga yaqin pul yig'ilganini ma'lum qiladi. Shuningdek, shayx Abdulmajid bu pulni Rossiya davlatining Buxorodagi konsuli Buxoro amiriga odam yuborib, podshohga o'zi taqdim qilish uchun unga berishni bildirganini xabardor etadi³.

Kitobda Qo'qon xonining elchisi Mengliboy Eshik Og'aboshi, Mehmed Posho tepaligidagi O'zbeklar dargohining shayxi Al-Haj as-Sayyid ash-shayx Sulaymon, Ayyub atrofidagi Qalandarxona dargohining shayxi Al-Haj ash-shayx Muhammad muhlari qo'yilgan 1866-yilgi ariza ham berilgan. Unda Buxoro ulamozodasi Eshon Xo'ja va bir o'g'li bilan ikki xizmatkori, yana ulamodan Madinai Munavvarada yashovchi Payg'ambarimiz (s.a.v.) haramining va O'zbek madrasasining mudarrisi as-Sayyid Muhammad Amin afandiga, yana Madinada yashovchi Imom Rabboniy avlodidan, mashhur xalifalardan Xalifa Shirin afandi va Qo'qon ulamosidan shayx Amin afandi ismli yetti kishi, duolari olinadigan zotlardan bo'lganliklari bois, ularning ikki oy davomida kerakli xarajatlarini qoplanishiga ruxsat so'ralgan⁴.

Shuningdek, O'zbeklar dargohi shayxi Muhammad an-Naqshbandiy va boshqa sakkiz kishining yangidan qurilgan dargoh ochilishi asnosida podshoh uchun qilingan duolarni qayd etgan 1891-yilgi minnatdorlik arznomasi ham kitobdan o'rin olgan⁵.

Arxiv hujjatlarini ko'rish asnosida buxorolik nisbasida Turkistondan kelganlarga nisbatan umumiy tarzda qo'llanilganligini qayd etib o'tish zarur. Hujjatlarda buxorolik deb ko'rsatilayotgan namoyondalar boshqa hududlarga taalluqli bo'lishi ham mumkin.

Arxiv hujjatlari takyalar – hojilar uchun qo'noq, ayni damda buxoroliklarni birlashtiruvchi maskan bo'lib, Turkiyada o'zbeklar jamoati shakllanishida hamda mamlakat sotsiomadaniy hayotida ahamiyati katta bo'lganligini belgilaydi. Shu bilan birga bu muassasalar davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalar rivojida ham o'rni borligini qayd etish kerak.

¹ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 242.

² Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 250–251.

³ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 298–299.

⁴ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 202–203.

⁵ Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Turkiya aloqalari hujjatlarda. – Istanbul, 2022. – B. 258–259.

Xulosa

Turkiyadagi O‘zbeklar takyalari faoliyatini o‘rganish O‘zbekiston olimlari uchun yangi yo‘nalish hisoblanadi. Buni ilmiy adabiyotlar va maqolalarni o‘zi ham ko‘rsatib turibdi. Ayniqsa, birlamchi manbalar bo‘lmish arxivlardagi hamda takya shayxlari va u bilan bog‘liq shaxslarning avlodlarida saqlanayotgan hujjatlarni tadqiqotlarga jalb etish zarur. Bu borada Turkiyadagi O‘zbeklar takyalariga oid hujjatlarni alohida to‘plam tarzida chop etish mumkin.

Umuman, Istanbul bilan bir qatorda Makka, Madina, Adana, Antakya, Bag‘dod, Bursa, Halab, Qohira, Shom va boshqa shaharlarda ham O‘zbeklar takyalari mavjud bo‘lib, ular Usmonli turk davlati orqali boshqarilgan. Bu ma’lumot O‘zbeklar takyalariga tarmoq sifatida qarash hamda ularning o‘zaro va Turkiston – Movarounnahrdagi takyalar, xonaqohlar bilan aloqalarini o‘rganish istiqboldagi tadqiqot yo‘nalishini belgilaydi.

Xalqaro “Alfraganus” jurnalining ushbu maxsus sonida e’lon qilinayotgan maqolalar asosan Uskudardagi Sultontepa O‘zbeklar takyasi faoliyatiga oid bo‘lib, birlamchi manbalarga tayanib yozilganligi bilan O‘zbekistonda mavzu tarixshunosligini boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar va manbalar ro'yxati

Dissertatsiyalar va avtoreferatlar:

Агзамова Г.А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): автореферат дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 1990. – 21 с.;

Каримов Э.Э. Суфийские тарикаты в Центральной Азии XII – XV вв. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ташкент, 1998. – 288 с.;

Махматкулов И. Т. Ўзбекистоннинг ўтмишдаги тасаввуф масканлари – хонақоҳлар архитектурасини ўрганиш ва улардан самарали фойдаланиш асосларини ишлаб чиқиш. архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 50 б.;

Рахмонкулова З.Б. XVI – XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2002. – иловаларсиз 139 б., иловалар билан 147 б.;

Таниева Г.М. XVI–XIX аср ўрталарида ҳаж зиёратининг Ўрта Осиё халқлари маънавий, мафкуравий ва ижтимоий ҳаётида тутган ўрни. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 79 б.;

Шадиёв Р. Т. Суфизм в народной жизни Средней Азии (IX – XIII вв.). Диссертация на соискание ученой степени доктора философских наук. – Самарканд, 1993. – 259 с.

Arxiv hujjatlari to'plamlari

Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. O'zbekiston-Türkiye aloqalari hujjatlarda. Proje yönetecisi/Loyiha rahbari: U. Ünal, U. Yusupov; Sorumlular/Mas'ullar: M. Tokdemir, C. Ekici, A. Özkilinc, D. Zakirova, A. Aliyev, N. Mirzayev. – Istanbul, 2022. – 368 b.;

История Центральной Азии в османских документах (Научные редакторы: Ш. Мустафаев, М. Серин; Обработка и транслитерация документов: К. Гурулкан, М. Билгин, Н. Пакирдаг):

Том I. Политические и дипломатические отношения. – Самарканд, 2011. – 310 с.;

Том II. Духовные и религиозные связи. – Самарканд, 2011. – 222 с.;

Том III. Общественная и повседневная жизнь. – Самарканд, 2012. – 313 с.

Adabiyotlar va maqolalar:

Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII веков (Письменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985. – 260 с.;

Байкова Н.Б. Роль Средней Азии в Русско-индийских торговых связях (вторая половина XVI – первая половина XVIII в.) – Ташкент, 1964. – 192 с.;

Bebitov M.A. Türkiye Antakiyadagi O'zbeklar takiyalari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Volume 1, Issue 11. – B. 1233–1241.;

Болтабоев Ҳ. Фитрат ва Жадидчилик. Илмий-тадқиқий мақолалар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – 286 б.;

Istanbuldaki Türkistan Tekkeleri (Ata yurt ile Ana yurt arasındaki manavi köprüler). – Istanbul, 2017. – 294 s.;

Kamalova N. Orta Asya'dan istanbul'a Tarihi ve Kültürel Bir Mekan: Özbekler Tekkesi / 7. Uluslararası Türk Kültürü kongresi: Türk ve dünya kültüründe Istanbul= 7th International Turkish

Culture Congress: In Turkish and world culture Istanbul: Bildiriler/yayına hazırlayan: Sııan Gür, Şebnem Ereebeci Çmar. – Ankara: Atatürk Kültür Merkezi, 2011. – S. 171–188.;

Камолиддин Ш.С. Ал-Қуддусдаги ал-Ўзбекиёи хонақоҳи / Обитель ал-Ўзбекиёи в Иерусалиме / Cloister of Uzbek Sufies in Jerusalem // Moziydan sado. – Тошкент, 2013. – 4 (60)-сон. – Б. 29–34.;

Камолиддин Ш. С. Истанбулдаги Ўзбек теккелари // Хорижий шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 28–36.;

Камолиддин Ш. Истанбулдаги Ўзбек теккелари // Хорижий шарқ мамлакатларидаги тарихий жараёнлар ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2024. – Б. 54–64.;

Kılıç-Schubel, Nurten. 2006. Rethinking the Ties Between Central Asia and the Ottoman Empire: Travels of a Central Asian Shaykh in Ottoman Empire in the 16th Century. In Papers of VIIIth International Congress of the Economic and Social History of Turkey. June 18–21, 1998. – Bursa, 1998. – PP. 4–26.;

Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX – начало XX в.) – Ташкент: Фан, 1980. – 184 с.;

Маҳмуд Асад Жўшон. Ислом, Тасаввуф ва Ахлоқ / тарж. ва сўнг сўз муаллифи Хожа Сайфуддин Сайфуллоҳ. – Тошкент: Истиқлол, 2000.;

Маҳмуд Асад Жўшон. Ислом ва Ахлоқ / тарж. ва сўнгсўз муаллифи Сайфуддин Сайфуллоҳ. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2019. – 356 б.;

Маҳмуд Асҳад Жўшон. Сиддиклар йўли. Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Тошкент: «Matbaachi» нашриёт-матбааси, 2022. – 200 б.;

Миропо́ев М. Религиозное и политическое значение хаджа или священного путешествия мухаммеданъ въ Мекку для совершения религиозного праздника. Сочинение студента Казанской духовной академии XIX учебного курса (1874–1878 гг.) Михаила Миропо́ева. – Казань, 1877. – 250 с.;

Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. – Ташкент, 1982. – 96 с.;

Мустафаев Ш. Шейх Али Самаркандий – проводник духовно-культурного трансфера между Мавераннахром и Анатолией (по данным Османских источников) // O'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2018. – 2-сон. – Б. 80–85.;

Таниева Г. XVI – XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи. – Тошкент, 2021. – 328 б.;

TDV İslâm Ansiklopedisi 40-Cilt. – Istanbul, 2011.;

Турар Усмон. Тасаввуф тарихи. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 180 б.;

Туркияда яссавийшунослик: Қул Хожа Аҳмад Яссавийнинг ҳаёти, ижоди ва тариқати мавзусида турк яссавийшуносликлари билан ўтказилган суҳбатлар тўплами. Суҳбат қилувчи ва нашрга тайёрловчи Нодирхон Ҳасан. – Тошкент: Истиқлол, 1999. – 56 б.;

Турсунов Ш. Бурхониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаёти ва фалсафий мероси (тарихий ва адабий манбалар асосида) // Academic Research in Educational Sciences. – 2024. – Volume 5. Issue 1. – Б. 81–89.;

Чўлиева В. Э. Баҳоуддин Валаднинг ҳаёти, фалсафий таълимоти ва илмий мероси // Имом Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2021. – 3-сон. – Б. 16–17.;

Shukurzoda M. Qardosh va qondoshlar hamkorligining keng qamrovli strategik sheriklik uflari (O'zbekiston va Turkiya respublikalari o'rtasidagi diplomatik munosabatlar va qardosh ikki

mamlakatlar o'rtasida keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlariga bag'ishlanadi). – Toshkent: «NI SO POLIGRAF», 2023. – 376 b.;

Юсупова М., Рахимова З., Ибрагимов О. Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV–XVII вв. (Архитектура, миниатюра, музыка). – Ташкент: издательство журнала “San’at”, 2010. – 208 с.;

Ҳайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов А. Бухоро ва Бухорийларнинг жаҳоний шухрати. – Тошкент: Наврўз, 2020. – 208 б.;

Internet materiallari:

Камолиддин Ш.С. Истанбулдаги Ўзбек такиялари. – <https://telegra.ph/Istanbuldagi-%D1%9Ezbek-takiyalari-11-11>. Maqola joylashtirilgan sana: 11.11.2020.;

Тожиалиев Д. Туркиядаги ўзбек хонақоҳларига назар. – <https://kun.uz/kr/03778684?q=%2F03778684>. Joylashtirilgan sanasi: 21.11.2016.;

Тўрамурод К. Ўзбеклар теккеси нима? – <https://zarnews.uz/post/ozbeklar-tekkesi-nima>. Joylashtirilgan sanasi: 06.01.2021.